

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



**MA'NAVIYATNING AXLOQIY ASOSLARI**  
fanining o'quv dasturi

**Bilim sohasi:** 100000 – Ta'lim

**Ta'lim sohasi:** 110000 – Ta'lim

**Magistratura mutaxassisligi:** 70112101 -Ijtimoiy-gumanitar fanlarni  
o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari)

**JIZZAX – 2022**

## JIZZAX – 2022

<b>Фан/модуль коди</b> (Magistratura)		<b>О‘quv yili</b> 2022-2023	<b>Semestr</b> 3	<b>ECTS - Kreditlar</b> 4
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy fan			<b>Ta‘lim tili</b> O‘ZBEK	<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4
<b>1</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg‘ulotlari</b> (soat)	<b>Mustaqil ta‘lim</b> (soat)	<b>Jami yuklama</b> (soat)
	<b>Ma‘naviyatning axloqiy asoslari</b>	60 Ma‘ruza - 30 Seminar - 30	60	120
<b>2</b>	<p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanni o‘qitishdan maqsad</b> – “Ma‘naviyatning axloqiy asoslari” fani uning mohiyatini belgilovchi tarkibiy qismlar, axloqiy asoslar, ma‘naviy mezonlarni tahlil qilishni, magistrant talabalarga axloqning normalari haqida bilim berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Ma‘naviyat va axloqning mohiyati va ahamiyati hamda uning jamiyat taraqqiyotiga ko‘rsatayotgan ta‘sirini tahlil qiladi..</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – Ushbu fanning asosiy vazifalari quyidagilar deb belgilab olindi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Magistrant-talabalar ongida ma‘naviy mezonlar va axloqiy asoslarni shakllantirish va har tomonlama etuk, barkamol shaxsni tarbiyalash;</li> <li>• Magistrant-talabalarni ma‘naviy-axloqiy qarashlar va ta‘limotlar tarixi bilan yaqindan tanishtirish;</li> <li>• Ma‘naviyat va ma‘rifatning umumnazariy jihatlarini to‘laqonli bilishlariga erishish;</li> <li>• Magistrant-talabalarda insof-dayonatlilik, sharm-hayolilik, iffatlilik kabi axloqiy fazilatlarini shakllantirish.</li> </ul> <p style="text-align: center;"><b>II. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p style="text-align: center;"><b>1- Mavzu: Millat ma‘naviy-axloqiy tarbiyasi milliy taraqqiyotning muhim omili sifatida</b></p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlaridagi milliy ma‘naviyat va milliy axloqqa oid fikrlar. «Axloq-ma‘naviyatning o‘zagi»</p>			

ta'rifining mazmuniy mohiyati. «Ma'naviyatning axloqiy asoslari» kursining maqsad va vazifalari. Millat ma'naviy-axloqiy tarbiyasi jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida.

Ma'naviyat va axloqning o'zaro aloqadorligi va o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida ma'naviyat va axloqning o'zaro bog'liq tomonlari haqida. Ma'naviyat va axloq – umumiy va farqli jihatlar. Inson hayotining ma'nosi. Inson tabiati va ma'naviyat. "Axloqshunoslik" fani tarkibida ma'naviyat masalalari. Ma'naviyatning tarkibiy jihatlar va axloqning jamiyat hayotidagi o'rni.

## **2- Mavzu: Jahon fanida ma'naviyat va axloq sohalarining nazariy tahlili (4-soat)**

Qadimgi dunyoda dastlabki axloqiy g'oyalar va qarashlarning amaliy va nazariy zaminlari. Amaliy axloqning xalq og'zaki ijodi tarzida yuzaga kelishi. Qadimgi Sharqdagi dastlabki axloqiy g'oyalar. Qadimgi Misr, Somir va Bobiloniyada amaliy axloqning dastlabki namunalarida axloq, ma'naviyat masalalari talqini. Eng qadimgi davrlarda imon va axloq nisbati.

"Avestoda" Tavhid e'tiqodi, asotir tafakkur va axloq. «Avestoda» asosiy axloqiy fazilatlar va illatlar talqini. «Abadiy ezgulik», «Ezgu niyat», «Ezgu tartib», «Ilohiy tobelik» kabi ezgu tushunchalar real ma'no kasb qilib, insoniylashgan qiyofadagi ma'budlar siymosida namoyon bo'lishi. «Avesto»da jon-ruh tushunchasi talqini. «Avesto»da ekologik axloqshunoslikning dastlabki kurtaklarining paydo bo'lishi.

Qadim Yunon va Rimda ma'naviyat va axloqqa oid muammolarning o'rganilishi. Demokrit Qadimgi Yunon faylasuflari ichida birinchilardan bo'lib insonning ichki dunyosiga murojaat qilishi. Suqrot, Aflotun, Arastu va Epikur ta'limotlarida axloq va ma'naviyat masalalari talqini. Sitseron, Lukretsiy Kar, Seneka, Epiktet, Mark Avreliy, Plotin, Sekst Empirik singari Qadimgi Rumo mutafakkirlarining merosida axloq va ma'naviyat masalalari.

Xristian axloqi va ma'naviyati. Tavrot va Injilda ma'naviyat va axloq nisbati. Avreliy Avgustinning "Ilohiy shahar haqida" asarida ma'naviy-axloqiy muammolarga yondoshuv. Abelyar va Tomas Akvinata. Protestant axloqi va ma'naviyati. Neotomizm falsafasida axloq va ma'naviyat masalalari.

Hozirgi zamon Evropa ilmida axloq va ma'naviyat masalalari – qarashlar xilma-xilligi va muammolar mohiyati. Hayot falsafasi axloqshunosligi. Ruhiiy tahlil mutafakkirlarining axloq va ma'naviyat haqidagi ta'limotlari. Ekzistensiyachilik axloq falsafasi. G'ayrizo'ravonlik axloqiy ta'limoti. Hayotga ehtirom va yangi tasavvufchilik axloqshunosligida axloq va ma'naviyat masalalari talqini.

Qadim Xitoy va Hindistonda axloq va ma'naviyat masalalarining o'rganilishi. Vedachilik, yo'ga, jaynchilik, buddhachilik, «Bxagavadgita» va «Artxashastra» hamda lokoyata oqimlarida axloq va ma'naviyat masalalari talqini. Hayotga zarar yetkazmaslik (aximsa), bu dunyodagi barcha manfaatlardan kechish

g'oyalarning axloqiy mohiyati. Konfutsiyning axloqiy g'oyalari. Daosizm axloqi. Hozirgi zamon Xitoy va Hind faylasuflarining ma'naviy-axloqiy qarashlari.

### **3- Mavzu: Milliy ma'naviy merosimizda axloq, odob, ma'naviyat masalalariga e'tibor (4-soat)**

Milliy ma'naviyatimiz tarixida axloq ilmiga oid yaratilgan asarlar. «Xuastuanift» «Avesto»dan keyin, islomgacha bo'lgan davrda mintaqamizda eng keng tarqalgan, mohiyatan axloqiy majmua. «Xuastuanift»da hayot va o'lim masalalari munosabat. «Handarzar»da axloq masalalari. Islomgacha yaratilgan turkiy bitiklarda axloqqa oid fikrlar.

Islom mintaqasi madaniyatida adab ilmi. O'rta asrlar musulmon Sharqi mintaqasi tafakkurida axloqning mohiyatini tushuntiruvchi va axloqiylikni targ'ib etuvchi mashhur pandnomalar. «Qobusnoma», «Axloqi Nosiriy», «Axloqi Jaloliy», «Axloqi Muhsiniy» asarlarida axloq, odob, ma'naviyat masalalari. Ibn al-Muqaffaning «al-Adab as-Sag'ir», «al-Adab al-Kabir», «Kalila va Dimna» asarlari, Adib Ahmadning «Hibat ul-haqoyiq» asari, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilik» asari, Xondamirning «Makorim ul-axloq» («Yaxshi xulqlar») asari va Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari milliy axloq tizimining ifodasi sifatida.

Islom mintaqasida tasavvufiy axloqiy ta'limotlar. Tasavvuf va javonmardlik. Dastlabki so'flylardan bo'lmish Robiya al-Adaviyaning tasavvufiy axloqiy ta'limoti. Tasavvuf axloqshunosligida Hujjat ul-islom Imom G'azzoliy ta'limotining o'rni. Jaloliddin Rumiyning «Masnaviyi ma'naviy», «Ichindagi ichindadir» kabi asarlarida axloq masalalari. Shayx Aziziddin Nasafiyning «Zubdat ul-haqoyiq» («Haqiqatlar qaymog'i»), «Insoni komil» («Komil inson») kabi asarlarida ahloq va ma'naviyat masalalari talqini.

XVI – XIX asrlar mumtoz adabiyotimizda axloqiy muammolarning akslanishi. XVI asrdan boshlab Mavoraunnahr axloqiy bilimlarning ikki asosiy yo'nalishda rivojlanishi. Birinchi yo'nalish – Mirzajon SHeroziy, YUSuf Qorabog'iy, Muxammad SHarif Buxoriy kabi mutafakkirlar ijodida o'z ifodasini topgan Mavoraunnahrning o'zidagi axloqiy fikr rivoji. Ikkinchi yo'nalish - Markaziy Osiyodan chiqib, Hindistonda ijod qilgan mutafakkirlar tomonidan rivojlantirilgan axloq ilmi. Mirzo Abdulqodir Bedil, Boborahim Mashrab, Maxtumquli, CHO'qon Valixonov, Ahmad Donish, Sattorxon Abdulg'afforovning asarlarida ahloq va ma'naviyat masalalari talqini.

Turkiston ma'rifatchiligining o'ziga xos xususiyatlari. Atoqli jadid mutafakkirlari Abay, Anbar otin, Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Olimat ul-Banot, Hamza, Avloniy asarlarida axloq, odob, ma'naviyat masalalari. Jadid matbuoti: «Taraqqiy», «Sadoi Turkiston», «Ulug' Turkiston», «Turon», «Xurshid» singari gazetalarda e'lon qilingan hajviy va publisistik maqolalarda axloqiy tarbiya muammolari. Jadid matbuotida ozodlik, Vatanni jondan ortiq sevuvchi, ilg'or, tushungan, har tomonlama kamol topgan erkin Turkiston fuqarosini tarbiyalash masalalarining yoritilishi.

Sho'rolar davrida dahriylik axloqining targ'ib qilinishi va buning ayanchli oqibatlari. XX asrning 30-yillarida Sho'rolar Ittifoqidagi dahshatli

qatag'onlarning xalq ma'naviyati va axloqiga ta'siri. Butun Ittifoq bo'ylab axloqsizlikning eng tuban ko'rinishlari axloqiylik deb e'lon qilinishi va uning shaxs erkinligi, insonning yashashga bo'lgan huquqi totalitar tarzda poymol etilishi. Sho'rolar davrida axloqshunoslik ilmiga munosabat. H.Shayxova, Y.Jumaboyev, H.Aliqulov singari axloqshunoslarning axloq nazariyasi va axloqiy tafakkur tarixiga doir ishlari.

#### **4- Mavzu: Islom ahloqi va ma'naviyati**

O'rta asrlarda Arab va Ajam mamlakatlarida islom dinining yoyilishi. Axloq va din. Islom dini – inson ma'naviyati rivojlanishining muhim omillaridan biri sifatida. Qur'oni karim. Tavhid – ixtiyor erkinligining muhofazasi sifatida. Ixtiyor erkinligi muammosi. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov. Ismoil al-Buxoriyning "Al-adab al-mufrad" asari islom axloqining qomusi sifatida. Hadislar zamonaviy shaxs va jamiyat axloqiy darajasini yuksaltirishda muhim tarbiyaviy manba. Islomda shariat va ahloq.

#### **5- Mavzu: Bosh ma'naviy qadriyatlar va asosiy ahloqiy fazilatlar. Jamiyat va inson hayotida qadriyatlarning roli (4-soat)**

Qadriyat tushunchasi va uning umumiy tavsifi. Bosh ma'naviy qadriyatlar-vatan, shaxs, millat, adolat, haqiqat tuyg'usining shaxs ahloqiy fazilatlarining shakllanishidagi o'rni. Ma'naviyat va qadriyatli ong rivojlanishning muhim bosqichlari shaxs ma'naviyatining shakllanishida milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlarning ahamiyati. Milliy qadriyatlar va zamonaviy yoshlar. Shaxs ma'naviy kamolotida axloqiy qadriyatlar uyg'unligi. Ma'naviy qadriyatlar – ularning namoyon bo'lish shakllari. Fan, axloq, san'at, falsafa, huquq qadriyatlari ma'naviy qadriyatlar sifatida.

Axloqiy fazilatlar shakllanishida ma'naviyat omili

Ma'naviyat haqida umumiy tushuncha. Axloqning ma'naviyat tizimidagi o'rni. Axloqning ma'naviyat tizimidagi birlashtiruvchilik xususiyati. Axloqning boshqa ijtimoiy-ma'naviy hodisalar bilan o'zaro aloqalari. Mas'uliyat tuyg'usi shaxs ahloqining o'zak tomiri sifatida. Fazilat va illat. Axloqiy fazilatlar va ularning amaliy ahamiyati. Ahloqiy fazilatlarni tasniflash muammosi.

#### **6- Mavzu: Axloqiy qusurlar ma'naviyatsizlik belgisi sifatida**

Imon va ahloq. Shaxs axloqiy kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Globallashuv jarayonida ma'naviy tanazzul hodisasi va uning axloqiy asoslari. Ahloqiy qusurlar va ularning namoyon bo'lish shakllari. Ateistik ahloq. Ma'naviyatsizlik va johillik. Taqlidiy imon va ahloqiy qusurlar. Xudbinlikning shaxs va jamiyat uchun zararli illat sifatida. Ommaviy madaniyatning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri. Zamonaviy axloqiy tarbiyada kosmopolitizmga moyillik. Axloqiy tarbiyada oila va jamiyat munosabatlari. Oila va jamiyat munosabatlari. Inson hulqi va ahloqiy tarbiya. Axloqiy tarbiya hamda uning yo'llari va vositalari. Oilaning ilk axloqiy maskan sifatidagi o'rni. Farzand tarbiyasida avlodlar o'rtasidagi oilaviy qadriyatlarning roli. Inson hulqi va ahloqiy tarbiya. Axloqiy tarbiya hamda uning yo'llari va vositalari. Oilaning ilk axloqiy maskan sifatidagi o'rni. Oilada ma'naviy muhitni shakllantirishning ahamiyati. Sog'lom oila - sog'lom jamiyat asosi. Farzand tarbiyasida avlodlar o'rtasidagi oilaviy

qadriyatlarning roli va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash. Oiladagi muhit va farzand tarbiyasi. Oila ma'naviyati shakllanishida ota-onaning o'rni.

### **7- Mavzu: Ma'naviyat va axloqda baxt muammosi**

Insonning yashashdan maqsadi va baxt muammosi. Jahon ilmida baxt muammosiga munosabatlar. Baxt va lazzat. Baxt – ko'ngil ishi. Imon va baxt. Baxtli bo'lish mas'uliyati. O'tkinchi baxt va boqiy baxt. Haqiqiy baxt – inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unligidadir. Axloqiy fazilatlar va qusurlar inson baxti va baxtsizligini belgilovchi omillar sifatida. Ma'naviyatsizlik – baxtsizlikdir.

Ma'naviyat va axloqda ideal va ideallik muammosi. Ideal va ideallikning falsafiy mohiyati. Falsafiy ta'limotlarda ideal va ideallikning talqini. Shaxs ma'naviy kamolatida ideal va ideallikning tutgan o'rni. Ideal va ideallikning ma'naviy jasorat bilan uyg'unligi.

### **8- Mavzu: Mustaqil O'zbekistonda ma'naviy va axloqiy tarbiyaning dolzarb masalalari**

Mustaqil O'zbekiston davlatining yosh avlodni milliy ma'naviy-axloqiy meros ruhida tarbiyalashga qaratilgan amaliy tadbirlari. Jamiyatda axloqiy fazilat va qusurlarning shakllanishiga sabab bo'luvchi turli omillarning kelib chiqish manbalari va ularning ilmiy tadqiqi. I.A. Karimovning “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch” asarida xalq og'zaki adabiyoti namunalari, mumtoz milliy san'at va adabiyotimizning tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e'tibor. Yosh avlod axloqiy tarbiyasida mumtoz milliy san'at va adabiyotimiz, jahon madaniyati va san'atining yuksak namunalaridan unumli foydalanish shakl va usullari.

### **9- Mavzu: O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha “Harakatlar strategiyasi”dagi ustuvor yo'nalishlarining axloqiy jihatlari**

Harakatlar strategiyasida xalqimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'li tahlili, Globallashuv sharoitidagi tobora kuchayayotgan raqobatning axloqiy mohiyati. O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha “Harakatlar strategiyasi”dagi Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan, Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan, Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan, Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan, Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan ustuvor yo'nalishlarining axloqiy jihatlari.

### **10- Mavzu: Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida ma'naviyat va axloqning dolzarb muammolari**

“Xalq davlat idoralariga emas, davlat xalqimizga xizmat qilishi kerak” g'oyasining axloqiy mohiyati. Prezident va xalq qabulxonalarining ta'sis etilishi axloqiy tamoyil va me'yorlarning amaldagi ko'rinishi sifatida. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz”, “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir”, “Erkin va farovon,

demokratiki O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”, “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” kabi asarlarida ma’naviyat va axloq masalalari talqini.

**11- Mavzu: “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” konsepsiyasida ma’naviyat va axloqiy tarbiya masalalari**

Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari konsepsiyasining mazmun-mohiyati. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasining axloqiy mohiyati. YUksak ma’naviyatli, mustaqil fikriga ega bo‘lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning ahamiyati. O‘zbekiston Prezidenti SHavkat Mirziyoevning tanlangan asarlarida madaniyat, san’at, adabiyot, ma’naviyat va axloqiy tarbiya haqidagi konseptual fikrlarning ilgari surilishi.

**12- Mavzu: Kitobxonlik madaniyatini oshirish, tarixiy meros, vatanparvarlik va qadriyatlar – milliy yuksalishning muhim omillari**

O‘zbekiston Prezidenti SHavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan “Biz jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha boshlagan ishlarimizni izchil davom ettiramiz” degan teran fikrning mazmun-mohiyati. Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmasligi. Vatanparvarlik – har bir davlat hayotining ma’naviy asosi, jamiyat rivojining eng muhim safarbar etuvchi kuch ekanligi. Tarixiy meros, vatanparvarlik va qadriyatlar – milliy yuksalishning muhim omili sifatida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan 5 muhim tashabbusning yoshlar ma’naviy va axloqiy tarbiyasidagi o‘rni.

**III. Seminar mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar:**

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

№	Seminar mashg‘ulotlari mavzulari va rejalari	Soat
1	<p><b>1- Mavzu: Millatning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi milliy taraqqiyotning muhim omili sifatida</b></p> <p><b>Reja:</b></p> <p>1. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlaridagi milliy ma’naviyat va milliy axloqqa oid fikrlar.</p> <p>2. «Axloq-ma’naviyatning o‘zagi» ta’rifining mazmuniy mohiyati.</p> <p>3. «Ma’naviyatning axloqiy asoslari” kursining maqsad va vazifalari.</p> <p>4. Millatning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida.</p>	2
2	<p><b>2- Mavzu: Jahon fanida ma’naviyat va axloq sohalarining nazariy tahlili</b></p> <p><b>Reja:</b></p> <p>1. Qadimgi Sharqdagi dastlabki axloqiy g‘oyalar.</p>	4

	<p>2. Qadim Yunon va Rimda ma'naviyat va axloqqa oid muammolarning o'rganilishi.</p> <p>3. Xristian axloqi va ma'naviyati.</p> <p>4. Hozirgi zamon Evropa ilmida axloq va ma'naviyat masalalari – qarashlar xilma-xilligi va muammolar mohiyati.</p> <p>5. Hayot falsafasi axloqshunosligi va ruhiy tahlil mutafakkirlarining axloq va ma'naviyat haqidagi ta'limotlari. .</p>	
3	<p><b>3- Mavzu: Milliy ma'naviy merosimizda axloq, odob, ma'naviyat masalalariga e'tibor</b></p> <p><b>Reja:</b></p> <p>1. Islomgacha yaratilgan turkiy bitiklarda axloqqa oid fikrlar.</p> <p>2. O'rta asrlar musulmon Sharqi mintaqasi tafakkurida axloqning mohiyatini tushuntiruvchi va axloqiylikni targ'ib etuvchi mashhur pandnomalar.</p> <p>3. XVI asrdan boshlab Mavoraunnahrda axloqiy bilimlar taraqqiyoti va u rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.</p> <p>4. Turkiston ma'rifatchiligining o'ziga xos xususiyatlari. Jadid axloqshunosligi.</p>	4
4	<p><b>4- Mavzu: Islom ahloqi va ma'naviyati</b></p> <p><b>Reja:</b></p> <p>1. O'rta asrlarda Arab va Ajam mamlakatlarida islom dinining yoyilishi.</p> <p>2. Islom dini – inson ma'naviyati rivojlanishining muhim omillaridan biri sifatida.</p> <p>3. Ismoil al-Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” asari islom ahloqining qomusi sifatida.</p> <p>4. Islomda shariat va ahloq</p>	4
5	<p><b>5- Mavzu: Bosh ma'naviy qadriyatlar va asosiy ahloqiy fazilatlar</b></p> <p><b>Reja:</b></p> <p>1. Qadriyat tushunchasi va uning umumiy tavsifi.</p> <p>2. Ma'naviy qadriyatlar – ularning namoyon bo'lish shakllari.</p> <p>3. Bosh ma'naviy qadriyatlarning shaxs ahloqiy fazilatlarining shakllanishidagi o'rni</p> <p>4. Fan, axloq, san'at, falsafa va huquq - ma'naviy qadriyatlar sifatida.</p>	2
6	<p><b>6-Mavzu: Axloqiy qusurlar ma'naviyatsizlik belgisi sifatida.</b></p> <p><b>Reja:</b></p> <p>1. Shaxs axloqiy kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar.</p> <p>2. Globallashuv jarayonida ma'naviy tanazzul hodisasi va uning axloqiy asoslari.</p> <p>3. Ahloqiy qusurlar va ularning namoyon bo'lish shakllari.</p> <p>4. Ommaviy madaniyat"ning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri</p>	2
7	<p><b>7-Mavzu: Ma'naviyat va axloqda baxt muammosi</b></p>	



	<p style="text-align: center;"><b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Insonning yashashdan maqsadi va baxt muammosi.</li> <li>2. Jahon ilmida baxt muammosiga munosabat.</li> <li>3. Baxt va lazzat. Baxtli bo‘lish mas’uliyati va unung namoyon bo‘lish shakllari.</li> <li>4. Inson baxti va baxtsizligini belgilovchi omillar.</li> </ol>	2
<b>8</b>	<p style="text-align: center;"><b>8-Mavzu: Mustaqil O‘zbekistonda ma’naviy va axloqiy tarbiyaning dolzarb masalalari</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yosh avlodni milliy ma’naviy-axloqiy meros ruhida tarbiyalashning ahamiyati</li> <li>2. Mamlakatimizda milliy ma’naviy-axloqiy merosni tiklash va uni rivojlantirishga qaratilgan amaliy ish va tadbirlar.</li> <li>3. Jamiyatda axloqiy fazilat va qusurlarning shakllanishiga sabab bo‘luvchi turli omillarning kelib chiqish manbalari va ularning ilmiy tadqiqi.</li> </ol>	2
<b>9</b>	<p style="text-align: center;"><b>9- mavzu: O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”da ma’naviyat va axloq masalalari</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Harakatlar strategiyasida xalqimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining tahlili.</li> <li>2. Globallashuv sharoitidagi tobora kuchayayotgan raqobatning axloqiy mohiyati.</li> <li>3. O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”dagi ustuvor yo‘nalishlarning axloqiy jihatlari</li> </ol>	2
<b>10</b>	<p style="text-align: center;"><b>10- mavzu: Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida ma’naviyat va axloqning dolzarb muammolari</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. “Xalq davlat idoralariga emas, davlat xalqimizga xizmat qilishi kerak” g‘oyasining axloqiy mohiyati.</li> <li>2. Prezident va xalq qabulxonalarining ta’sis etilishi axloqiy tamoyil va me’yorlarning amaldagi ko‘rinishi sifatida.</li> <li>3. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev asarlarida ma’naviyat va axloq masalalari talqini.</li> </ol>	2
<b>11</b>	<p style="text-align: center;"><b>11- mavzu: Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari konsepsiyasida ma’naviyat va axloq tarbiya masalalari</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari konsepsiyasining mazmun-mohiyati.</li> <li>2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasining axloqiy mohiyati.</li> </ol>	2

	3. Yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning ahamiyati.	
12	<p><b>12- mavzu: Kitobxonlik madaniyatini oshirish, tarixiy meros, vatanparvarlik va qadriyatlar – milliy yuksalishning muhim omillari</b></p> <p><b>Reja:</b></p> <p>1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Biz jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish bo'yicha boshlagan ishlarimizni izchil davom ettiramiz" degan g'oyaning mazmun-mohiyati.</p> <p>2. Tarixiy meros, vatanparvarlik va qadriyatlar – milliy yuksalishning muhim omili sifatida.</p> <p>3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan 5 muhim tashabbusning yoshlar ma'naviy va axloqiy tarbiyasidagi o'rni.</p>	2
<b>Jami:</b>		<b>30</b>
<p><b>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</b></p> <p>Mustaqil ta'limning turli xil shakllari mavjud bo'lib, bunda asosiy e'tibor talabani berilgan mavzular (amaliy masalalar, topshiriqlar va keys-stadilar)ni mustaqil ravishda, ya'ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o'qib o'rganishi va shu yo'nalish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishiga qaratiladi. Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;</li> <li>- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;</li> <li>- mustaqil ishlar, keys-stadilar bilan ishlash;</li> <li>- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;</li> <li>- fanga oid statistik ma'lumotlarni o'rganish, ularni tahlil qilish;</li> <li>- talabani o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularni chuqur o'rganish;</li> <li>- faol va muammoli o'qitish usulidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari</li> </ul>		
3	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><b>1. Talaba bilishi kerak:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Маънавиятнинг ахлоқий асослари ва маънавиятнинг эстетик асосларининг о'xshashliklari va farqlari to'g'risida <b><i>tasavvurga ega bo'lishi;(bilim)</i></b></li> </ul> <p>маънавиятнинг эстетик асосларининг konseptual-metodologik asoslari va uning o'ziga xos xususiyatlari, маънавиятнинг ахлоқий асослари bilan bog'liq asosiy kasbiy atamalar va toifalar, tamoyillar va tasniflar <b><i>bilishi va ulardan foydalana olishi;(ko'nikma)</i></b></p>	

4	<p style="text-align: center;"><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– ma'ruzalar;</li> <li>– interfaol keys-stadilar;</li> <li>– seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>– guruhlarda ishlash;</li> <li>– taqdimotlarni qilish;</li> <li>– individual loyihalar;</li> <li>– jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p> <p><b>Joriy nazorat.</b> Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (jufflik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.</p> <p><b>Oraliq nazoratlar.</b> Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.</p> <p>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.</p> <p style="text-align: center;"><b>Yakuniy nazorat</b></p> <p>Yakuniy nazorat yozma yoki test shaklida o'tkaziladi. Talabaniing yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.</p>
6	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <p>Ziyomuhamedov V., Ziyomuhamedova S., Qodirova S. "Ma'naviyat asoslari" – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2000 yil.</p> <p>R.Karimov va boshqalar. Estetika asoslari. – T.: "Cho'lpon" nashriyoti, 2006 yil.</p> <p>3. Umarov E. "Estetika" (Nafosatshunoslik) – T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 2008 yil.</p> <p>4. Abdulla Ser. Estetika - T.: O'FMJ nashriyoti, 2013 yil.</p> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b></p> <p>Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993 yil.</p> <p>Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Hadis. 1-4 jildlar.–T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1997 yil.</p> <p>Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. Izohli ko'rgazmali vositalar Mualliflar jamoasi.– T.: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2001 yil.</p> <p>Otamurodov S., Mamashokirov S., Xolbekov A., Markaziy osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. – T.: "Ijod dunyosi" nashriyoti, 2002 yil.</p> <p>"Temur tuzuklari. – T.: "Sharq" nashriyoti, 2005 yil.</p>

	<p>Xasanov M, Kaxharova M, Agranyan YU. Etika, estetika, logika. – T.: 2005 god.</p> <p style="text-align: center;"><b>Elektron ta’lim resurslari:</b></p> <p>ww. tdpu. uz  www. Ziyonet. uz  www. edu. uz  www. ma’naviyat. uz  <a href="http://www.bilim.uz">www.bilim.uz</a>.</p>
<b>7</b>	<b>Jizzax davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan</b>
<b>8</b>	<b>Fan/modul uchun mas’ul:</b> M.Хошимхонов (D.s.)
<b>9</b>	<b>Taqrizchilar:</b> <b>K.Mirzaaxmedov</b> – O‘zMU “Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrası dotsenti, siyosiy f.b.f.d (PhD) <b>B.Toshboyev</b> – Jizzax DPU, “Falsafa, tarbiya va huquq ta’limi” kafedrası dotsenti, falsafa f.b.f.d (PhD)